
QO'SHTEPA TUMAN DAVLAT SOLIQ INSPEKTSIYASI TOMONIDAN "SOLIQCHI - KO'MAKCHI" TAMOYILI ASOSIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR



Tadbirkorlik sub'ektlarining soliq yukini kamaytirish va biznes yuritishni soddalashtirish maqsadida Prezidentimizning 2022 yil 28 iyundagi PF-162-son farmoni bilan soliq ma'muriyatchiligiga qator o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, **2022 yil 1 iyuldan** foydalanilmayotgan ko'chmas mulk ob'ektlariga **ta'sirchan soliq mexanizmini qo'llash bekor qilindi**. Shuningdek, QQS ma'muriyatchiligi soddalashtirilib, majburiy ravishda QQS to'lovchisi sifatida e'tirof etiladigan tadbirkorlik sub'ektlariga **QQS guvohnomasi** soliq xavfi darajasiga aniqlik kiritilmasdan **avtomatik ravishda berilish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda**.

Bundan tashqari, yuqoridagi farmon bilan **2023 yil 1 martga qadar** hisobvara-q-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida tovarlar (xizmatlar) identifikatsiya kodlari (MXIK)ni noto'g'ri aks ettirganlik uchun **moliyaviy jarima qo'llanilmasligi belgilab qo'yildi**.

Albatta, bu kabi o'zgarishlar tadbirkorlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu o'rinda tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "Soliqchi-ko'makchi" tamoyili asosida **Qo'shtepa tuman** DSI xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tmoqchiman.

Ayni paytda muntazam ravishda tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmogda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Xususan, 2022 yil 1-yarmida **Qo'shtepa tuman** DSI tomonidan 980 ta tadbirkorlik sub'ektlarini qiynayotgan muammolari o'rganildi. Mazkur jarayon davomida ko'maklashish zarur bo'lgan **610 ta** tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirish, ortiqcha QQS to'lovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Qo'shtepa tuman davlat soliq inspeksiyasi xodimlari tadbirkorga maslahatchi, ko'makchi va yaqin hamkor sifatida o'z faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. Tadbirkorlar o'zlarini qiynayotgan masalalar yuzasidan 73-425-16-56 (*Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sho''basi*) raqami orqali murojaat qilishlari mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlarining soliq yukini kamaytirish va biznes yuritishni soddalashtirish maqsadida Prezidentimizning 2022 yil 28 iyundagi PF-162-son farmoni bilan soliq ma'muriyatchiligiga qator o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, **2022 yil 1 iyuldan** foydalanilmayotgan ko'chmas mulk ob'ektlariga **ta'sirchan soliq mexanizmini qo'llash bekor qilindi**. Shuningdek, QQS ma'muriyatchiligi soddalashtirilib, majburiy ravishda QQS to'lovchisi sifatida e'tirof etiladigan tadbirkorlik sub'ektlariga **QQS guvohnomasi** soliq xavfi darajasiga aniqlik kiritilmasdan **avtomatik ravishda berilish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda**.

Bundan tashqari, yuqoridagi farmon bilan **2023 yil 1 martga qadar** hisobvara-q-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida tovarlar (xizmatlar) identifikatsiya kodlari (MXIK)ni noto'g'ri aks ettirganlik uchun **moliyaviy jarima qo'llanilmasligi belgilab qo'yildi**.

Albatta, bu kabi o'zgarishlar tadbirkorlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu o'rinda tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "Soliqchi-ko'makchi" tamoyili asosida **Qo'shtepa tuman** DSI xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tmoqchiman.

Ayni paytda muntazam ravishda tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmogda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Xususan, 2022 yil 1-yarmida **Qo'shtepa tuman** DSI tomonidan 980 ta tadbirkorlik sub'ektlarini ^{1 / 2} qiynayotgan muammolari o'rganildi. Mazkur jarayon davomida ko'maklashish zarur bo'lgan **610 ta** tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirish, ortiqcha QQS to'lovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan

amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Qo'shtepa tuman davlat soliq inspeksiyasi xodimlari tadbirkorga maslahatchi, ko'makchi va yaqin hamkor sifatida o'z faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. Tadbirkorlar o'zlarini qiynayotgan masalalar yuzasidan 73-425-16-56 (*Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sho''basi*) raqami orqali murojaat qilishlari mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-07-06 07:43:41